

AHOLINING ISTE'MOL SAVATCHASIGA BO'LGAN TALABI

Tursunqulov Jahongir Furqat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ikkinchi oliy ta'lim fakulteti bosh mutaxassisi

Anotatsiya. Ushbu maqola orqali Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida: O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab etdi.

Kalit so'zlar: Minimal iste'mol xarajatlari, iste'mol, kambag'allik, kambag'allik chegarasi, minimal kilokaloriya, protsentil, real iste'mol qiymati, target guruhi, uy xo'jaligi, Engel koeffitsiyenti, uy xo'jaligi.

Ключевые слова: Минимальные потребительские расходы, потребление, бедность, черта бедности, минимальная килокалория, процентиль, реальная стоимость потребления, целевая группа, домохозяйство, коэффициент Энгеля, домохозяйство.

Key words: Minimum consumption expenditure, consumption, poverty, poverty line, minimum kilocalorie, percentile, real consumption value, target group, household, Engel coefficient, household.

Minimal iste'mol xarajatlari tarkibini mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi hamda aholi daromad va xarajatlarining o'zgarishini inobatga olgan holda kamida har 5 yilda qayta ko'rib hisob-kitob qilib chiqiladi¹.

Iste'mol — bu iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish orqali ushbu jarayonda moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalanish, takror ishlab chiqarish jarayonining so'ngi bosqichi. Iste'mol turiga va tarkibiga ko'ra, ishlab chiqarish iste'moli va noishlab chiqarish iste'moliga bo'linadi.

"Iste'mol savatchasi" deganda bir kishi yoki oilaning me'yor darajasi bo'yicha iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat tovarlarining hamda xizmatlarning joriy narxlardagi qiymati va bahosi tushuniladi. Bularga, shu jumladan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

non va non mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, o'simlik yog'i, shakar, kartoshka kabi 13 turdagi guruhlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

Minimal iste'mol xarajatlari, kambag'allik chegarasi va uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlarining hamda tarkibi va holatini o'rganish yordamida ular orqali amalga oshiriladi;

Sog'lom hayot kechirish uchun kerak bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal iste'mol xarajatlar qiymatini hisoblash tamoyillari, bosqichlari va tartibi.

Minimal iste'mol xarajatlari hisoblashda har bir uy xo'jaligi a'zolarining yoshi, tarkibidan kelib chiqqan holda tegishli koeffitsiyentlarni qo'llash orqali hisoblanadi;

Aholining real minimal iste'mol xarajatlari, xususiyatlari va tarkibidan kelib chiqib, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibini belgilaydi.

Minimal iste'mol xarajatlari BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki, FAO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash bo'yicha berilgan tavsiyalar asosida ishlab chiqiladi.

Iste'mol savatchasining hozirgi holati va uni shakllantirish yo'nalishlari:

Avvallari bu kabi tushunchalar bo'lmagani sababli, oddiy xalq orasida "Iste'mol savatchasi" tushunchasini qabul qilish ancha murakkab munozara va muhokamalarga sabab bo'ldi². O'zbekiston sharoitida bu tushunchani rivojlantirishga zarurat bor edimi degan savollar ham tug'ilgan. Aholining turmush-tarzida bu qanday ahamiyat kasb etadi, albatta, shu kabi savollar tug'ilishi tabiiy.

Iste'mol savati - bu shaxs, inson yoki oilaning iste'mol darajasi va tuzilishini tavsiflovchi mahsulotlar va xizmatlar to'plami. Bu atama ikki asosiy ma'noda ishlatiladi:

Iste'mol savatida quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'ladi:

- Non mahsulotlari (un, don va makaron mahsulotlari);
- Kartoshka;
- Sabzavotlar va poliz mahsulotlari;
- Yangi uzilgan mevalar;
- Shakar va qandolat mahsulotlari;
- Go'sht mahsulotlari;
- Baliq mahsulotlari;
- Sut va sut mahsulotlari;
- Tuxum;
- O'simlik yog'i, margarin va boshqa yog'lar va hokazo.

² Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasida minimal iste'mol xarajatlari qiymati to'g'risida

Oziq-ovqat bo‘lmagan mahsulot va xizmatlar narxi bilan oziq-ovqat narxi (foizda) o‘rtasida quyidagi nisbatlar belgilanadi:

-Oziq -ovqat bo‘lmagan mahsulotlar - aholining barcha guruhlar uchun oziq-ovqat narxining 50%.

-Xizmatlar - aholining barcha guruhlar uchun oziq-ovqat narxining 50%.

Iste‘mol savatchasi o‘zi nima? Oddiy insonga uning qanday foydali tomoni bor?

Iste‘mol savatchasi bir inson yoki oila uchun ma‘lum bir vaqtga, masalan, bir oyga zurr mahsulotlar va xizmatlar bo‘lib, ko‘p davlatlarda uning umumiy qiymatiga ko‘ra aholiga ijtimoiy nafaqalar belgilanadi. Shuningdek iste‘mol savatchasi inson uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat, dori-darmon kabi hayot uchun zarur vositalar majmuasini anglatib, turli davlatlarda turlichadir.

Missol uchun, AQShda bu savatchaga 300 xil mahsulot kiritilgani holda, Fransiyada — 250, Angliyada — 350, Germaniyada — 475, Rossiyada esa 156 xil mahsulot iste‘mol savatchasidan joy olgan.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida iste‘mol miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar, iste‘mol savatchasining bugungi kundagi aholi daromadlariga mosligi, aholining bandligi va mehnat yoshidagi aholining daromadlari ilmiy va amaliy bashorat qilinadi. Shuningdek qiyosiy taqqoslash usuli yordamida jahonning rivojlangan davlatlarida aholi iste‘moli va iste‘mol savatchasining miqdori, uning shakllanish holati o‘rganilgan va yurtimizdagi joriy holat bilan solishtirib tegishli xulosalar shakllantirildi. Har bir davlat o‘zining iqtisodiy taraqqiyoti davomida aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash, ijtimoiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish borasida izchil islohotlarni amalga oshirib boradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad insonlar uchun tobora rivojlanib borayotgan davriy taraqqiyotga mos ravishda munosib turmush sharoitlarini yaratib berishdan iborat. Dunyo mamlakatlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o‘ziga xos kontseptsiyalari mavjud. Jumladan, bir qator davlatlarda aholining munosib hayot kechirishini ta‘minlaydigan hamda huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan “Yashash minimumi” va “Iste‘mol savatchasi”ga mutanosib tarzda ta‘minlab boriladi. Davlat tomonidan iste‘mol savatchasini amalga joriy etilishi hamda uni qonuniy asoslar bilan mustahkamlab qo‘yilishi insonlar uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega³. Chunki, bu amalda belgilab qo‘yilgan ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va boshqa to‘lovlar miqdorini real hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda belgilanishini ta‘minlaydi. Iste‘mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi, ya‘ni mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun joriy qilinadi.

Aholining turli qatlamlari (yoshi, jinsi) yashashi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarining eng kam miqdorini belgilashda muayyan davrdagi (bir kunlik, bir oylik,

³ T.Turgunov, I.Jalolov “Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistik baholash: milliy va xalqaro tajriba” - “Jamiyat va boshqaruv” №4, 2018 y.

bir yillik) normalari aniqlanadi. Masalan, bir kishi normal hayot kechirishi uchun bir kunda yoki bir oyda iste'mol qilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari to'plami va miqdori, shuningdek, barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha summa zarurligi hisoblab chiqiladi. Bunda iste'mol savatchasi tarkibiga kishi ularsiz bamaylixtir, sog'lom yashashi mumkin bo'lgan tovarlar kiritilmaydi⁴. Masalan, ba'zi rivojlangan davlatlarda tamaki, benzin kabilar ham iste'mol savatchasi tarkibidan joy olgan. Bugungi kunda yurtimiz aholisining katta qismi yoshlar qatlamidan tashkil topganligi uchun, so'nggi yillarda oilalar a'zolarining soni kamayishi ro'y bermoqda. Shuning uchun komunal to'lovlar, soliq va boshqa majburiy yig'imlar uchun ajratilayotgan mablag'lar umumiy bo'lganligi uchun uy xo'jaliklari o'zida bo'lgan qolgan mablag'larni jamg'arishga harakat qiladi. Iste'mol savatchasining tarkibi va qiymatini davriy taraqqiyotga mos tarzda mutanosibligini ta'minlab borish davlatlar uchun ma'lum iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki, odatda, savatchani belgilashda birinchi navbatda eng zarur turdagi ehtiyojlarning (oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmatlar) minimal darajasidagi qiymati hisobga olinadi. Ammo, iste'mol savatchasi tarkibini tobora rivojlanib borayotgan inson ehtiyojlariga xamohang tarzda kengaytirib borishda ayrim turdagi qismlarini aniqlash va uni hayotiy zaruriyatidan kelib chiqqan holda qo'shib borishda ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Misol uchun, insonlar iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining kunlik yoki bir oylik turi va miqdorini belgilashda aniq bir o'lchamlarga ega bo'lish mumkin. Lekin, xizmatlarning zarur to'plamini aniqlash va uni amalda belgilash nisbatan murakkabroq. Sababi, aholi tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda birinchi navbatda kommunal va transport xarajatlari inobatga olinadi. Xususan, inson hayot faoliyati davomida dolzarbligi jihatidan bir qator muhim xizmat ko'rsatish turlaridan (uyali aloqa, internetdan foydalanish, tibbiy yordam, turli mutaxassislar maslahatlarini olish) faol foydalanadi. Shuningdek, madaniy-ma'rifiy tadbirlar (teatr, muzeylarga borish xarajatlari ham alohida e'tiborga loyiq) ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki, inson nafaqat moddiy, balki ma'naviy ehtiyojlarini ham yetarli darajada qondira olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida "Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas"ligi amalda belgilab qo'yilgan bo'lsada, insonlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur daromadlar me'yorini ifodalaydigan "iste'mol savatchasi" va uning huquqiy asoslari

⁴ X.Abdurahmonov (2017) "Aholi daromadlari va turmush sifati".-T.: Iqtisod moliya.

qonunchilikda mustahkamlanmadi⁵. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar nafaqat O‘zbekistonga, balki MDH ning ko‘plab davlatlari uchun ham bir qator muammolarni keltirib chiqargan. Respublikamizda “yashash minimumi” yoki “iste‘mol savatchasi”ning, garchi xuquqiy asoslari yaratilmagan bo‘lsada, amalda zarur turdagi iste‘mol mahsulotlari imtiyozli (tannarxi yoki import narxidan arzon) narxlarda aholiga yetkazib berildi (1995 yilgacha davlat tomonidan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari cheklangan chakana narxlarda ushlab turilgan). Bu kabi islohotlar murakkab iqtisodiy tanglik yillarida aholi moddiy ta‘minotini minimal darajalarda bo‘lsa-da, ta‘minlashda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbekistonda yashash minimumi va iste‘mol savatchasi amalda qonun bilan mustahkamlanmaganligining asosiy omillari sifatida shuni ta‘kidlash lozimki, dastlabki yillarda real iqtisodiy imkoniyatlarning bunga imkon bermasligi, shuningdek, ko‘plab turdagi iste‘mol mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqarishning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ularning aksariyati import evaziga ta‘minlangan va bu davlat budjeti uchun iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

Iste‘mol savati aholining uchta ijtimoiy-demografik guruhi — mehnatga layoqatli aholi, nafaqaxo‘rlar va bolalar uchun ishlab chiqilishi lozim. Federatsiya bir oyda o‘rtacha mehnatga layoqatli shaxs iste‘mol qiladigan tovar va xizmatlarning ro‘yxatini ham tayyorladi.

Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini takomillashtirish bo‘yicha xulosa va takliflar

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, Respublikamizda kundalik iste‘mol tovarlarining asosiy qismini aholining iste‘mollarga bo‘lgan talabi tashkil etadi. Iste‘mol tovarlari iqtisodiy kategoriya sifatida qishloq xo‘jaligi, iste‘mol sanoati tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olinishini va iste‘molchilarga sotilishini tashkil etuvchi xo‘jaliklar o‘rtasidagi ayirboshlash munosabatlarining majmuasini aks ettiradi.

Ayni damda rivojlanmagan mamlakatlarning ilg‘or ilmiy-texnik taraqqiyotining sanoatlashuviz boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi doimiy ravishda kengayib borayotgan daromadlar tafovutining bir asr davomida bo‘lgani kabi o‘shishda davom etishining oldini olish mumkin emas. Qishloq xo‘jaligi qishloq joylarda yashaydigan dunyodagi kambag‘allarning 70 foizini asosiy daromad va ish bilan ta‘minlaydi⁶. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi va mavjudligi, shuningdek, shahar kambag‘allari uchun oziq-ovqat va asosiy mahsulotlarni sotib olish imkoniyatlarini keskin shakllantiradi⁷. Fermerlarni kamsituvchi va qishloq xo‘jaligi narxlarini

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2023. www.lex.uz.

⁶ Mirziyoyev Sh.M. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasi vakillari uchun katta sinov va keng imkoniyatlar yili. 14 aprel 2020 y.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

pasaytirish orqali arzon shahar oziq-ovqatlarini yaratishga intiladigan siyosat, ayniqsa, kambag'allarning asosiy qismi qishloqda bo'lgan joylarda qashshoqlikning oshishiga olib kelishi mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining pastligi qishloq aholisi daromadlarini, shuningdek, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va etkazib berishni pasaytiradi. Shahar kambag'allari qishloq kambag'allaridan ko'ra siyosiy jihatdan kuchliroqdir.

Aholining umumiy daromadlariga pul daromadlari va natura ko'rinishidagi daromadlar kiradi. Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, umumiy daromad "birlamchi daromad" va "transfertlardan olingan daromadlardan" tashkil topadi. Birlamchi daromad esa, ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va molmulkdan olingan daromadlarga bo'linadi. Transfertlardan olingan daromadlar o'z ichiga ijtimoiy transfertlar (pensiya, stipendiya va h.k.) va boshqa joriy transfertlarni qamrab oladi⁸.

Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, "aholi daromadiari" tushunchasining ta'rifi, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarnmg yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil daromadlar siyosatini ohkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi⁹. Tadqiqotlarda aholi daromadlari uning yuzaga kelishi yoki xo'jalikning turli sharoitlarida daromadlarning taqsimlanishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ko'pincha ushbu masala faqat kambag'allik, qashshoqlik, aholini ijtimoiy himoya qilish bilan o'zaro bog'liqlikda tekshiriladi. Daromad o'lchamlarining miqdoriy va sifatiy o'zgarishi va taqsimlanish tamoyillarining o'zgarishi umuman iqtisodiyot, daromadlar nazariyasi sohasi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent.: O'zbekiston, 2023. www.lex.uz.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.

⁸ T.Turgunov, I.Jalolov "Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistik baholash: milliy va xalqaro tajriba" - "Jamiyat va boshqaruv" №4, 2018 y.

⁹ Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.SH., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘isida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasida minimal iste‘mol xarajatlari qiymati to‘g‘risida.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

6. Mirziyoyev Sh.M. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasi vakillari uchun katta sinov va keng imkoniyatlar yili. 14 aprel 2020 y.

7. O‘zbekiston Respublika Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi

IV. Asosiy adabiyotlar:

8. T.Turgunov, I.Jalolov “Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistik baholash: milliy va xalqaro tajriba” - “Jamiyat va boshqaruv” №4, 2018 y.

9. X.Abdurahmonov (2017) “Aholi daromadlari va turmush sifati”.-T.: Iqtisod moliya.

10. X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov (2014)) “Aholi daromadlari va turmush sifati” .-T.: “Tafakkur Bo‘stoni”, -B. 5-10

11. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti”. Darslik. – T.: MEHNAT, 2009.

12. T.Turgunov, I.Jalolov “Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistik baholash: milliy va xalqaro tajriba” - “Jamiyat va boshqaruv” №4, 2018 y.

13. Nazarova G.G‘.,Xalilov.X. Jahon iqtisodiyoti.O‘quv qo‘llanma. T., 2005

14. Nazarova G.G‘., Haydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. T., 2005 Internet resurslari

V. O‘zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralari

15.O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar:

17. 2017-2021 yillardagi Yillik statistik to‘plam.

18. 2016-2020 O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi to‘plami.

19. Aholi turmush darajasi statistika to‘plami.

VII. Internet saytlari:

20. siat.stat.uz

21. www.stat.uz